

.....

ERKIN VOHIDOV IJODIDA “RUHLAR ISYONI” MOTIVLARI VA ULARNING BADIY TALQINI

Dilhayot Sotiboldiyev

Qo‘qon davlat universiteti gumanitar fanlar va tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni yaratilish tarixi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Asarda bengal shoiri Nazrul Islom obrazi orqali erk, adolat, inson qadr-qimmat va ruhiy ozodlik g‘oyalari badiiy talqin etilgani yoritiladi. Shuningdek, dostonning kompozitsion tuzilishi, rivoyatlar tizimi, ramziy obrazlar va falsafiy mushohadalarning badiiy-estetik ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda adabiy tanqidchilar baholari hamda ijodkorning badiiy haqiqatni yaratishdagi izlanishlari asosida “Ruhlar isyoni” dostonining zamonaviy o‘zbek dostonchiligi taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov, “Ruhlar isyoni”, Nazrul Islom, doston, badiiy talqin, falsafiy mushohada, ramziy obraz, adabiy tanqid, kompozitsiya, o‘zbek adabiyoti, erk, adolat, ruhiy ozodlik.

“Ruhlar isyoni” o‘zbek shoiri Erkin Vohidovning bengal shoiri Na.zrul Islom haqida yozgan dostoni. Doston bir necha rivoyatdan iborat bo‘lib, ularda turli tarixiy va tarixiy bo‘lmagan shaxslar haqida so‘z yuritiladi. “Ruhlar isyoni” Erkin Vohidovning eng yaxshi tanilgan dostonlaridan biri bo‘lib, adabiy tanqidchilar tomonidan yuqori baholanib keladi. Ibrohim G‘afurov doston haqida “Menga u ko‘p jihatlardan bugungi o‘zbek she‘riy tafakkurining – lirik tafakkurining cho‘qqisi bo‘lib ko‘rinadi”, deb yozgan. Erkin Vohidov “Ruhlar isyoni” dostonini 1978- 1979- yillarda yozgan. Doston ilk bor “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan. Kitob o‘laroq birinchi marta 1980-yil Toshkent shahrida G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida chop etilgan. Dostonni Aleksand Faynberg rus tiliga tarjima qilgan. Ruscha nashr 1983-yil Moskva shahrida “Советский писател” nashriyotida chop etilgan. Doston keyinchalik Erkin Vohidovning bir necha she‘riy to‘plamiga, jumladan, “Sharqiy qirg‘oq” (1980), “Sadoqatnoma” (1986), “В минуту песни не

порвис, струна...” (1986), “She’r dunyosi” (2001) hamda “Zamin sayyorasi” (2014) to‘plamlariga kiritilgan. Bundan tashqari, dostonidagi rivoyatlar “Qumursqalar jangi” (1983) to‘plamidan ham o‘rin olgan [6].

Haqiqiy yurakka yetib boruvchi asarlar, haqiqiy zamonning turli ta’na toshlariga bardosh beruvchi asarlarning yozilishi oson bo‘lmaydi. Yozuvchi, shoirlar hattoki qaysi mavzuda yozayotgan bo‘lsa o‘sha mavzuning ich-ichiga kirishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham asarlari o‘lmas asarlar qatoriga kiritiladi. Misol uchun, Tog‘ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” asarining yozilishi haqida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi: “Men qog‘oz-qalam g‘amladim. Men Surxon dalalarini nishonladim. Ikki bor jumhuriyat gazetasida: “Men paxta dalalariga ketaman”, deya so‘z berdim. El-yurtga ikki bor so‘z berdim. Ilk ko‘klamda Oltinsoy tumaniga yo‘l oldim. Tuman kattalari bilan yuzlashdim... Men bo‘lajak Dehqonqul bilan yuzma-yuz bo‘ldim. Men bo‘lajak Dehqonqul dalalarini ish joyim etdim. Dehqonlar qanday kiyimda bo‘lsa, men ham shunday kiyinib oldim. Dehqonlar o‘tirsas - o‘tirdim, dehqonlar tursa - turdim. Chigit ekish boshlandi. Men dehqonlar bilan chigit ekdim. Men dehqon bo‘lib chigit ekdim. Men g‘o‘za yaganaladim. g‘o‘za chopiq qildim. g‘o‘za o‘toq qildim. g‘o‘zaga go‘ng berdim. g‘o‘zaga suv taradim, g‘o‘za chilpidim. Men dehqonlar bilan paxta terdim. Men g‘o‘zalarga suv taray-taray, necha-necha tonglarni oqladim. Men shiyponlarda uxlab qoldim. o‘qariq bo‘ylarida uxlab qoldim. Egatlarda uxlab qoldim. Men Surxon dalalarida olti oy kezdik. Surxon oftobida olti oy kuydim. Surxon changlarini olti oy yutdim” [10,168]. Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” asarining yozilishi bo‘yicha: “Imkoni boricha tarixiy materiallarni o‘rganib, Samarqandga yo‘l oldim. Go‘ri Amir va Ulug‘bek madrasalarining g‘ira-shira, nim qorong‘u yo‘laklarida kezdik, atoqli riyoziyotchi Qozizoda Rumi va Ulug‘bek navjuvon talabalariga saboq aytgan mashhur madrasaning ulkan yarim vayrona xonasida o‘yga cho‘mdim. Necha daf‘a buyuk rasadxona xarobalarida titroq va hayajon bilan ko‘zdan kechirdim. Endi men Ulug‘bek obrazi – uning yuzi, sa‘yi harakati muttasil ta’qib qilardi. Koinot sirlarini anglab yetgan bu buyuk inson nechun o‘zini butun borlig‘i ila ilmga baxsh etmadi? Toju taxt uchun kurash naqadar behuda ishliligini nega tushunib yetmadi? – degan va keyinchalik kitobda Ali Qushchi tomonidan bayon qilingan fikrlar hol jonimga qo‘ymasdi” [4, 3] fikrlarini keltirib o‘tadi. Erkin Vohidov ham “Ruhlar

isyon” dostonini yozishga ozmuncha tayyorgarlik ko‘rmaydi. “Otashin Bengal shoiri Nazrul Islomning qahramonona va fojiali taqdiri ko‘pdan meni hayajonga solib kelar, u haqda biron narsa yozish xayolida yurardim”, — deydi muallif. Shu maqsadda Erkin Vohidov shoir hayoti va ijodini astoydil o‘rgandi, shoir hayotiga oid faktlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Hindistonga bordi, shoir yashagan joylarda bo‘ldi, shoirni shaxsan tanigan, bilgan kishilar bilan suhbat qurdi [3,163]. Erkin Vohidov dostonni 1979- yil 20- martida Hindistonning Dehli shahrida yozib tugatgan. Shoir dostonning yaratilishi haqida shunday degan: “Doston o‘zining isyonkor she‘rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashgan ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiaviy qismati haqida. “Ruhlar isyoni” garchi Nazrul Islom haqida bo‘lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o‘zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma‘nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o‘y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko‘rishga intildim” [6].

Erkin Vohidov “Xalq so‘zi” gazetasiga bergan intervyusida shu fikrlarni aytib o‘tadi: “Yoshimiz ulg‘ayib, ko‘zimiz ochilgan sari, aldanayotganimizni, bu siyosat bir xalqning ustunligiga qurilgan “ruslashtirish” siyosati ekanligini, madaniyat deganda rus madaniyati, tarix deganda rus tarixi ilgari surilganligini anglay boshladik. Ana shu tuyg‘ularning birinchi natijasi “O‘zbegin” she‘ri bo‘ldi. Undan avval “Fuzuliy haykali qoshida” she‘rini yozganimdek, Yozuvchilar uyushmasidagi har xil majlislardan tortib, markazqo‘mning plenumlarida ham tanqidga uchradim. “O‘zbegin” esa olovning ustiga yana moy quydi. Zero, bu yashirib bo‘lmaydigan tuyg‘ular ifodasi edi” [11,3]. Adib mustabid tuzum sharoitida ham o‘zining haq so‘zi bilan el orasida e‘tibor qozonganini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. Yozuvchi o‘z she‘riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Buning yorqin misolini shoirning “O‘zbegin” qasidasida ko‘rishimiz mumkin, o‘z vaqtida xalq o‘rtasida og‘izdan tushmaydigan bo‘lib qolgan edi. Bu qasida 1968- yilda chop etilgan bo‘lib, muallif she‘riyatining eng avj pallasi hisoblanadi. Sharq mumtoz she‘riyatida qasidalar asosan podsholar, amir-u xonlar sha‘niga, ular tomonidan amalga oshirilgan ezgu amallarni olqishlash maqsadida

bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi o'zbekimga bag'ishlaydi. Bu shoir ijodidagi dastlabki badiiy publitsistik isyon deya baholasak yanglishmagan bo'lamiz, negaki, bunday ijodiy jasorat shunisi bilan alohida ajralib turadiki, qasida yozilgan davr sobiq sho'ro mustamlakasi barcha millatlar "sovet xalqi" degan umumiy, sun'iy nom bilan atalar, insonlarning ma'lum bir millat vakili ekani bilan faxrlanishlari millatchilik deya atalib, bunday ijod na'munasini yaratgan ijodkorlar ham siyosiy, ham ijtimoiy tazyiqqa olinar edi. Ko'rinib turibdiki, adib ijodi iste'dodining dastlabki isyoni ayni "O'zbekim" qasidasida ulkan bir portlash ko'rinishida, so'z qudrati, millat qudrati, ijodkorning mahoratida yaqqol ko'rinadi deb aytsak aslo yanglishmaymiz [2,274-275]. "O'zbekim" qasidasi 1968- yili chop etilgan bo'lsa, keyinchalik turli sinovlarni boshidan o'tkazgan Erkin Vohidov "Ruhlar isyoni" dostonini 1979-yillar yozib tugatadi. Garchi Erkin Vohidovning boshiga ham so'zi uchun, Vatanini qo'rqmasdan madh etgani uchun turli sinovlar kelgan bo'lsa-da, qalbida yig'ilgan isyonlarini o'zining "Ruhlar isyoni" dostonida to'kishga harakat qiladi.

Erkin Vohidov dastlab shoir boshidan kechgan hayajonli voqealarni hikoya qiluvchi bir she'riy qissa yozdi. Biroq bu asardan ko'ngli to'lmadi. "O'ylab qarasam, deydi u, unda men Nazrul Islom hayotiga oid ko'pchilikka tanish faktlarni shunchaki belletristik yo'lda sharhlash, hikoya qilib berish bilan cheklanib qolgan ekanman. Yozuvchi-shoirning vazifasi biror shaxs hayoti, sarguzashtini shunchaki hikoya qilib berishdan iborat bo'lsa, dunyoda yozuvchilikdan oson hunar bo'lmasdi. Ijodkor o'z qahramoni hayoti, taqdirini badiiy tahlil etishi, shu bahonada o'zining hayot haqidagi kuzatishlari, o'y-mushohadalarini o'rtaga tashlashi kerak-ku, axir! Mening qahramonim Nazrul Islom taqdiri bu jihatdan g'oyat boy material berardi. Mushkul ijodiy izlanishlar pallasi boshlandi, dostonning tayyor ilk variantidan voz kechishga to'g'ri keldi, ko'p urinishlardan keyin dostonning o'quvchilarga taqdim etilgan hozirgi varianti paydo bo'ldi" [9, 278].

Nazrul Islom she'rlaridan birida "Men isyonkor", "Men qayg'uli bu dunyoning notinch qolgan ruhiman", –degan edi. Doston muallifi shoirning shu xildagi satrlariga tayanib, uning isyonkor qalbi manzalarini chizadi, ijodining bosh pafosini ochadi. Xuddi o'sha bezovta qalb, isyonkor ijod talqini jarayonida muallif shoir fojiasining ibtidosini ko'radi: shoir she'rlaridagi isyonkorona ruhni birov to'g'ri anglaydi, birov

noto‘g‘ri: shoir zarur gapi, haq dostoni uchun ta’na-dashnomlar ostida malomatlarga qoladi: birov “Qani she’rda gullar raqsi? Qani bulbul navosi?” desa, boshqasi, “Bu she’r Sharqqa xosdir nahot? Na ishqiy, na rindona”, – deya ajablanadi. Birov “Buzmoq abas, isyon esa, gunohdir”, desa, yana birovi “Siyosat-la o‘ynashmoqni kim qo‘yibdi, shoirga”, – deya ta’na yog‘diradi. Bundan ham yomoni bor gapni bilib turib kurashdan, g‘alvadan o‘zini chetga olgan xudbin, jasoratsiz, noshud-notavon munofiqlar g‘alamisligidir [8,456]. Garchand, dostondagi voqealar Hindiston zaminida sodir bo‘lsa-da, Vatan mustaqilligi yo‘lidagi kurashlar, yurt ozodligi, erkin kuylagan ijodkorlar boshiga tushgan ko‘rgiliklar, qiynoqlar, ho‘rliklar bizga ham begona emasdi. Nazrul Islom obrazi hukmron doira tomonidan ta’qibga olingan “Vaysaqi intelligentlar”ning tipik vakili edi. Faqat voqealar bizda emas, hind zaminida sodir bo‘ldi. Bu usulni mohirona qo‘llagan shoir Erkin Vohidov bir o‘rinda o‘zini fosh qilib qo‘yadi:

Nazrul Islom

Nomi oxir

Ming baloga taqaldi.

El uchun jon tikkan shoir

El dushmani ataldi [1, 266].

“Gap” aytishda she’riyatning imkoniyati ko‘proq. Negaki, she’riyatda fikrni obrazlar ortiga berkitish, timsollar va ramzlar vositasida ifodalash mumkin. “Ruhlar isyoni”dagi Nazrul Islom bu – Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Abdulla Qodiriy. Hindistonda hech qachon “xalq dushmani” degan tamg‘a bo‘lmagan. Nazrul Islomning ingliz istilochilariga qarshi kurashi o‘z yurtimdagi mustamlakachilik siyosatiga qarshi, umuman mustamlakachilikka qarshi nafratim edi. Mustamlakachilik siyosatining mohiyati esa, xalqni jaholatda tutish, g‘ururini o‘ldirish, madaniyati, tarixi, tilini yo‘qotishdan iborat. Ana shunga qarshi o‘z munosabatimni ayta olganim bois, bu doston bilan doim fahrlanaman [11, 3]. Erkin Vohidovning yuqoridagi fikrlarini o‘qib, bejiz “Ruhlar isyoni” dostoniga Nazrul Islomning quyidagi satrlarini epigraf sifatida tanlamaganiga guvoh bo‘lamiz:

“Tug‘ilgansan ozod, mudom

Ozod bo‘lib qol” [7, 330].

Inson tug‘ilganda ozod bo‘lib tug‘iladi, hech kimga qaram bo‘lmasdan tug‘iladi, o‘z istagini amalga oshirishga harakat qiladi. Bu holatni go‘daklarda beixtiyor kuzatishimiz mumkin. Biroq ulg‘aygan sari mustaqil bo‘lib borgan ayrim insonlar deb olamizmi, ayrim mamlakatlar deb olamizmi, aynan keyinchalik ozodligini qo‘ldan boy berishi mumkin. Bu holatni O‘zbekiston va Hindiston misolida qarasak yanada ravshanlashadi. Bejiz Ozod bo‘lib tug‘ildingmi, ozod bo‘lib yasha deya yozmagan Nazrul Islom. Ushbu satrlar jadid adabiyoti namoyondasi, XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin yulduzi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Ko‘ngil” she’rini yodimizga solishga majbur etadi:

*Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashdin?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
Haqorat dilni og‘ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?
Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsen,
Kishan kiyma,
Bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen! [5]*

Demak, Erkin Vohidov dostonida Nazrul Islom hayotini gavdalantirgan bo‘lsada, nafaqat, Hindistonning kechmishi haqida, balki, O‘zbekistonning ayanchli o‘tmish davrlarida millat uchun kurashgan jadidlarning ko‘ngillaridan yog‘ilgan so‘zarni ham dostonga singdirib yuborgan.

Dostonida “o‘zga” tilidan gapirayotgan shoirning aynan o‘zi edi. Demak, dostonida hind isyonkor shoiri haqidagi voqealar tasvirlangan bo‘lsa-da, unda idrok qilinayotgan narsa boshqa – Vatan ozodligi va shaxs erki masalasi edi. Bu tuyg‘u Erkin Vohidovda “Ruhlar isyoni” yozilishidan ancha avvalroq uyg‘ongan, obrazga muallif shaxsiyatining singdirilishi Nazrul Islom timsolida ko‘zga tashlanadi [1, 266]. O‘zi

yashab turgan tuzumdan qoniqmaslik, u bilan ziddiyatga kirishish, muhitga sig‘maslik Nazrul Islom xarakterida o‘z aksini topadi. Nazrul Islom timsoli orqali Erkin Vohidov o‘z estetik ideali – shaxs erki, vatan ozodligi mavzusini ilgari surdi. Nazrul islom shoir mahorati tufayli barkamol xarakterga aylandi. Agar tuzum adolatli bo‘lsa, unda shaxs va jamiyat munosabatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘ladi. Sho‘ro tuzumi qo‘l ostidagi xalqlarni boshqarish uchun totalitar mafkura hukmronligini o‘rnatdi. Kommunistik utopiya haqidagi yolg‘on aqidaga butun boshli xalqlarni ishontirdi... Va‘da qilingan utopiyaning antiutopiya ekani ayon bo‘ldi. “Ruhlar isyoni”da xuddi shu holat ko‘rsatiladi. Isyonkor Nazrul Islom boshlagan qo‘zg‘olon mustabidlar tomonidan shu taxlit bostiriladi. Endi dostonida voqeaalar oqimi o‘zgaradi, yanada keskinlashadi. Istibdodga qarshi kurash milliy va diniy nizoga aylanib ketadi [1, 266].

Erkin Vohidov dostonida quyidagi satrlarni yozadi:

*Jisman chetda,
Ammo ruhan
G‘alayonda men ham bor.
Nazrul Islom
Ruhi bilan
Bormoqdaman bir qator.
Men ham alvon
Tig‘ ko‘tardim.
Shu el dog‘i dog‘imdir.
Dardi uning –
Mening dardim,
Ohi - mening ohimdir [7, 390].*

Mutlaq ozodlik bormi o‘zi? Inson faqat o‘z istagi bilan yashashi mumkinmi? Jamiyatda yashab turib inson shu jamiyatning qonun-qoidalaridan tashqarida bo‘la oladimi? Odamzod hamisha ko‘nglim nima deydi deb emas, el-yurt nima deydi deb yashar ekan. Kerak va keraksiz g‘am-qayg‘u, tashvishlarni boshiga ortar ekan, qalbning eng hassos ezgu tuyg‘ularini yashirmoqqa majbur bo‘larkan. Zotan, jamiyatda yashamoqning ma‘nosi shu, ozodlikning anglab yetilgan zarurat ekani shu [1, 266].

Erkin Vohidovda ham isyonkorlik ruhi o'zining yuqori darajasiga chiqqanini va Nazrul Islom hayoti orqali, Vatanini mustamlakachilardan ozod ko'rish istagi yuqori ekanini yuqoridagi satrlar orqali ham ko'rib o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Erkin Vohidov davrning, muhitning chirkinliklarini, johil odamlarning harakatlarini o'z asarlarida qo'rqmasdan yoza olishga erishgan shoirdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azimova Dildora. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida shaxs konsepsiyasi // "Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2022. –b. 266.
2. Jo'rayev Shukrullo. Erkin Vohidov ijodining o'ziga xos qirralari // "Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2022. –b. 274-275.
3. Karimov Obidjon. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2016. –b. 134.
4. Odil Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. Tarixiy roman. Ilm-ziyo-zakovat, –Toshkent, 2019. –b. 3.
5. Tafakkur.net Ko'ngil. Abdulhamid Cho'lpon. 2017-yil 12- yanvar.
6. Vikipediya. Ochiq ensiklopediya. Ruhlar isyoni. 2024- yil 16- sentyabr.
7. Vohidov.Ye. Tanlangan asarlar. Sharq, –Toshkent, 2019. –b. 390.
8. Karimov.N, Mamajonov.S, Nazarov.B, Normatov.U, Sharafiddinov.O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 1999. –b. 456.
9. Karimov N., Nazarov B., Normatov U. XX asr o'zbek adabiyoti. 11 sinf uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. –b. 278.
10. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Roman. Sharq, –Toshkent, 1994. – b. 168.
11. Erkin Vohidov bilan O'zA muxbiri suhbat. Dunyoga ochiq ko'z bilan qarash saodati. Xalq so'zi. 1999 yil, 26 avgust. –b. 3.
12. Erkin Vohidov. Ozodlik qayg'usi// Tafakkur. 2008 yil, 1 son. –b. 49.
13. Azimboyevna, Y. S. (2024). JAHON VA O ZBEK FANTASTIK ASARLARIDA TAKRORIY MOTIV TUSHUNCHASI VA UNING BADIY TALQINI. Research Focus, 3(Special Issue 1), 19-23.
14. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.

15. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.
16. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
17. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.